

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI**  
**GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”**  
**Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani**  
\_\_\_\_\_ dots. G'.Qodirov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 y

5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“TURKMANISTON RESPUBLIKASINING UMUMTA'LIM**  
**MAKTABLARIDA O'QITILISHI”**

mavzusida bajarilgan

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: HAYITOV ABROR**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Kamolov M.N.**

**BMI “Geografiya va uni o`qitish metodikasi”**  
**kafedra yig`ilishining \_\_\_\_\_ 2012 y.**  
**№\_\_ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.**

**Kafedara mudiri:**

**g.f.n. Q.Hakimov**

**JIZZAX-2012**

## MUNDARIJA

	Bet
KIRISH.....	3 - 5
<b>I BOB    TURKMANISTON RESPUBLIKASIGA UMUMIY TAVSIF.....</b>	<b>6 - 10</b>
1.1    Turkmaniston Respublikasining geografik joylashuvi va tabiiy resurslari, ekologik muammolari.....	11 - 15
1.2    Aholisi va mehnat resurslari.....	16 - 18
1.3    Turkmaniston Respublikasi xo'jaligi: sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti.....	18 - 31
<b>II BOB    TURKMANISTON RESPUBLIKASI MAVZUSINING             UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITILISHI.....</b>	<b>32 - 33</b>
2.1    Mavzuning umumta'lim maktablarida o'qitilishida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar.....	33-37
2.2    Turkmaniston Respublikasi mavzusining umumta'lim maktablarida o'qitilishida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.....	38 - 44
2.3    Turkmaniston Respublikasi mavzusining yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi bir soatlik dars ishlanmasi.....	45 - 50
<b>XULOSA.....</b>	<b>51 - 52</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>53 - 54</b>

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasidagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirish maqsadida umumta'lim maktablari isloh qilindi. Bu qonun va milliy dasturining asosiy talablaridan biri yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga to'la javob beruvchi, malakali vatanga sodiq, fidoiy kadrlarni yetishtirish hisoblanadi.

Bunday kadrlarni yetishtirish umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari oldiga yangicha mazmunga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshirishni, birinchi nabvatda o'quv jarayonini tashkil etishda yangi shakl va uslublarni taqdim qilishni talab qiladi.

Shu boisdan ham umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan asosiy fanlardan biri bo'lgan geografiya kursini oqitishning sifati va samaradorligini yanada oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Ushbu malakaviy ish O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kursining asosiy bo'limlaridan bo'lgan Turkmanistonn Respublikasini o'qitish uslublariga bag'ishlangan.

Biz bu ishni bajarish jarayonida shu mavzuni o'qitish uslublariga bag'ishlangan nashr qilingan yetakchi uslubchi olimlardam P.Baratov, A.Rafiqov, M.Mamatqulov, A.Ro'ziyev va boshqalarning darsliklari, ilmiy uslubiy ishlarini o'rganib chiqdik va shu sohada o'z mulohazalarimizni bayon qildik.

Bitiruv malakaviy ish kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, amaliy ahamiyati, ilmiy-tadqiqot ob'ekti va yangiligi ko'rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishda tanlangan mavzuning dolzarbligining umuta'lim maktablarining geografiya kursida Turkmanistonn Respublikasi ta'limining noananaviy usulda o'qitishning foydalangan holda o'qitishga bag'ishlab nashr qilingan ilmiy uslubiy ishni yetarli deb bo'lmaydi, huddimanashu mavzuga ya'ni Turkmanistonn Respublikasini noananaviy usullardan foydalanib o'qitish masalalariga bag'ishlangan.

Unda tanlagan mavzuning maqsadi: unda shu navzuni tanlashdan maqsad umumta'lim maktablarining geografiya o'qituvchilariga noanaviy usullardan foydalanilgan holda o'qitish bo'yicha usullardan ko'rsatish.

Ishda tanlandan mavzuning amaliy ahamiyati. Bu mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, agar geografiya o'qituvchisi Turkmaniston Respublikasini o'qitishda tilga olingan natija va xulosalardan foydalansalar o'qituvchilarning ish mavzularini chuqur va puxta o'zlashtirishini ta'minlanadi.

Ishning ilmiy tadqiqot ob'yekti.

Turkmanistonn Respublikasini o'rganish bo'yicha nashr qilingan darsliklar ilmi-uslubiy qo'llanma, tavsiyanoma va maqolalar ma'ruza matni hamda umumta'lim maktablarining 7- sinf va 9 - sinf o'quvchilari.

Ishdagi qilingan yangilik shundan iboratki, unda Turkmanistonn Respublikasini noanaviy usullaridan foydalangan holda o'qitish usullari bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining bugungi kundagi ta'lim jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan texnologik jarayonning asosini tashkil qiladi.

Ishning 1-bobida Turkmaniston Respublikasiga umumiy tavsif, ya'ni iqtisodiy-geografik joylashuvi, aholisi, mehnat resurslari, xo'jaligi, sanoati va foydali qazilmalari haqida umumiy mal'umotlar bayon qilingan. Bu ma'lumotlar asosida Turkmanistonn Respublikasining nafaqat O'rta Osiya mamlakatlari orasida balki butun dunyo mamlakatlari orasida o'ziga xos nufuzga ega ekanligi bilan ajralib turishini ko'rish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Turkmanistonn Respublikasi industrial mamlakat bo'lib, iqtisodiyotining asosini sanoat tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida esa neft va gaz qazib chiqarish , paxta yetishtirish bilan ishtirok etadi. Turkmanistonn Respublikasi chetga ko'proq neft va neft mahsulotlari natri sulfat, elektroenergiya, sement xom-ashyosi, paxta yog'i, poliz ekinlari, qorako'l terisini eksport qiladi.

Isning ikkinchi bobida esa Turkmaniston Respublikasini umumta'lim maktablarida o'qitilishi. Bu bob 3 rejadan iborat bo'lib, hozirga vaqtda ta'lim

sohasida qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishning zarurligi, qulayligi va afzalligi haqida yoritiladi.

Bundan tashqari YAPTlardan umumta'lim maktablarida foydalanishda ularga bevosita bog'liq bo'lgan 1 soatlik dars ishlanmasi va mavzuni yoritishda foydalaniladigan ko'rgazmali qurollarning nechoqlik zarurligi va ulardan foydalanish usulari haqida ma'lumotlar beradi.

Hozrgi zamon talabi shuni ko'rsatadiki, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga to'la javob beruvchi, malakali, vatangasodiq fidoiy kadrlarni yetishtirishdir.

## I BOB. TURKMANISTON RESPUBLIKASIGA UMUMIY TAVSIF

Rasmiy nomi -Turkmanistonn Respublikasi.

Poytaxti - Ashxabad.

Hududi - 488100 km<sup>2</sup>

Aholisi - 5461459 kishi.

Davlat tili - turkman.

Dini - islom.

Pul birligi - manat.



Turkmanistonn Respublikasi Markaziy Osiyoning janubi -g'arbida joylashgan. Shimolda va Sharqda O'zbekiston (1621km), Shimolda Qozog'iston (379km), Janubda Afg'oniston (744 km) va Eron (922km) davlatlari bilan chegaradosh, G'arbda mamlakat Kaspiy dengizining suvlari bilan tutashgan.

Chegarasining umumiy uzunligi 3736 km. Sohilning uzunligi 1768 km. Mamlakat hududining katta qismi past tekislik bo'lib , unda Qoraqum sahrosi (cho'li) joylashdan. Sahroning maydoni- 375 ming km<sup>2</sup> . Mamlakatning shimoliy g'arbida Kaspiy dengizi bo'yida Qora Bo'foz- Ko'l ko'rfazi joylashgan. Ko'rfaz dengiz sathidan 35m past Janub va Janubi g'arbida Kopetdog' tog'lari bor. Yirik cho'li-Sariqamish sho'r ko'li. Asosiy denizi- Amudaryo. Turkmanistonn

neft, gaz, kaliy va osh tuzlari, rangli va noyob metallarga boy. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 2 % ini yaylovlar 69% ini tashkil etadi.

Kaspiy dengizi orqli o'tgan chegarasi Turkmanistonning o'nlab xorijiy bevosita chiqish imkoniyatini beradi. Quruqlik orqali esa Turkmaniston temir yoli orqali, avtomobil yo'li va quvir transporti bilan M O davlatlari hamda Eron, Afg'oniston va boshqa xorijiy davlatlarga chiqish imkoniyatiga ega. Turkmaniston dunyoning qadimiy shaharlaridan hisoblanadi. O'tagan 70 yillarda u chor Rossiyasi tomonidan ish'ol qilindi. 1917-1991 yillarda esa SSSR tarkibida bo'ldi. Turkmaniston o'z mustaqilligini 1991 yilda qo'lga kiritdi. Davlatning nomi "Turkmaniston" deb qabul qilindi. 1991 yil 27 oktyabr kuni Turkmanistonning mustaqillik kuni deb e'lon qilindi. Davlatni prezident boshqaradi. Prezident umumxalq tomonidan 5 muddatga saylanadi. Mamlakatning birinchi saylangan prezidenti Saparmurod Niyozov. Turkmaniston Respublikasi Ashgabat, Krasnovodsk, Mari, Cho'rjoiy, Doshvuz, Ollayatni o'z ichiga oladi. Turkmaniston MDH ga kiradi. O'z navbatida u MDH bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini olib boradi.



Davlat tuzilishi - Prezident Respublika, 1991 yil 27 oktyabrda Turkmaniston mustaqil bo'ldi. Milliybayrami hisoblanadi. Davlat boshlig'i prezident hisoblanadi. Prezident bosh vazir (Vazirlar kengashi raisi)ni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi oliy organ - Majlis (bir palatali parlament). Ro'yxatdan o'tgan yagona siyosiy partiya - Turkmaniston demokratik partiyasi.

Sanoatning asosini neft, gaz qazib chiqarish va neftni qayta ishlash tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida paxta, mevalar, sabzavotlar yetishtiriladi. eksport qilinadigan mahsulotlari - paxta tolasi, dizel yoqilg'isi, mazut, qo'lda tikilgan gilamlar. 2010 yil YIM miqdori 38870 mln dollar (aholi jon boshiga - 6968 dollar) tashkil etgan.

Asosiy savdo sheriklari - Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarboayjon, Turkiya. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 2170km, avtomobil yo'llari - 13000km. Asosiy porti - Turkman boshi.

Aholisining kasariyati turkmanlar, shuningdek, ruslar, o'zbek, qozoq, tatar, ukrainlar, armanlar ham yashaydi. Shahar aholisi 45%. Rasmiy til - turkman tili. Aholining kelib chiqishi, milliy tarkibi joylashishi. Turkmaniston aholosining son jihatidan MDH davlatari ichida 4-o'rinda turadi. Bu yer aholisi ancha siyrak joylashgan. Markaziy Osiya davlatlarida har bir km<sup>2</sup> ga 13.8 kishi tog'ri kelgan holda Turkmanistonnda aholi zichligi 9.2 kishiga teng. Aholining etnik kelib chiqishi uzoq tarixga borob taqaladi. "Turkman" so'zi birinchi marta arab adabiyotida X asrda tilga olinadi. "Turkmaniston" ya'ni "Turkmanlar" mamlakati so'zi esa o'rta asrlardayoq mavjud bo'lgan.

Turkmaniston ko'p millatli davlat. Aholisining 70% dan ortig'ini turkmanlar, 12% ruslar, 8% o'zbek, 3% qozoqlar tashkil qiladi. Shuningdek bu yerrda tatar, ukrain, arman, ozarbayjon va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining tabiiy o'sishi va uni takror ishlab chiqarish ancha yuqori. Aholining ko'payishi 1990-1999 yillardan 112.4% tashkil qiladi. Shu yillar ichida aholining yillik o'tacha o'sishi Qozog'istonda 2.1%ni tashkil etgan bo'lsa, U Turkmanistonnda eng yuqori 4.1% ga teng bo'ldi.



Mamlakatdan aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi birichidan aholizichligining tez ortib borishini tamomlayotgan bo'lsa, ikkinchi mehnat unumining tez ko'payishiga uning balandlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu yerda 1940 yilda har bir km<sup>2</sup> ga aholining o'rtacha zichligi biln shug'ullanadigan hududlarda aholi zichligi 200-250 kishiga teng.

Turkmanistonn aholisining katta qismi 55%ni qishloqlarda yahsaydi. Shunga qaramasdan Turkmanistonn MDH da urbanizatsiya darajasi ancha yuqori.

Uning eng yirik shaharlari: Poytaxti - Ashgobod, Olloyat markazlar - Cho'rjo'y, Turkmanboshi, Mari, Doshvuz shahar shahar aholisining teng yarmi yashaydi.

Xo'jaligi: Bosh tarmoqlari. Mamlakat xalq xo'jaligi ko'p tarmoqlidir.

Sanoatda gaz, neft va ularni qayta ishlash, ximiya va yengil sanoat tashkil qiladi. Mashinasozlikning ko'pgina turlari metallni qayta ishlash sanoatini rivojlantiradi. Ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishda xorijiy davlat bilan bevosita aloqalar o'rnatilmoqda, sarmoyalar olmoqda, ishbilarmon kadrlar moddiy ishlab chiqarishning turli sihalariga jalb qilinmoqda. Mamlakat

iqtisodiyotida dehqonchilik xo'jaligining ulushi katta. Barcha ekin maydonlarning 54%ga paxta ekiladi. Qishloq xo'jaligida mamlakat o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan donli ekinlar hashakli ekinlar, sabzavot, meva va uzum yetishtirishga katta e'tibor bermoqda. Mamlakat sanoatining yetakchi tarmog'i - yoqilg'i energetika va elektrenergetikada regionlarning mavjud texnikaviy imkoniyatlari darajada ishab chiqarish ko'rsatgichlari pasayib bormoqda. Ikkinchi mil - tabiiy resurs. Mamlakat tarqqiyotida tabiiy resurslar - ayniqsa neft va tabiiy gaz zaxirasi nihoyat darajada ko'p. Garbiy Turkmanistonnda ayniqsa boy. Kaspiy bo'yidagi yatta neft havzasi mamlakatning janubiy qismidan sharqqa toki Amudaryogacha cho'ziladi. Hozircha qora oltin mamlakatning g'arbiy va janubi-g'arbiy joylashgan zahira konlardan qazib olinadi.

Qishloq xo'jaligi, tabiiy sharoiti omili va dehqonchilik regionlari. Turkmanistonning tabiiy sharoiti omili va dehqonchilik regionlarining katta qismida dehqonchilik qilish uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Yer fondining 80%dan ko'proq qismini qum arxanlari, yaylovzorlar ishg'ol qiladi. Bu yaylovlar qo'ycjilik, tuyachilik uchun qulay yaylovlardir. Bu o'rinda mamlakat hududining aksariyat qismini ishg'ol qilgan. Markaziy Qoraqum, janubi-sharqiy Qoraqum, Zaunguz Qoraqum maskanlarini tilga olish orinli.

## **1.1. Turkmaniston Respublikasining geografik joylashuvi va tabiiy resurslari**

Turkmaniston O'rta Osiyo davlatlarining janubiy g'arbiy qismida, Kaspiy dengizi va Amudaryo orasida joylashgan. Uning maydoni 488,1 ming km kv bo'lib, O'rta Osiyodavlatlarining 12,2 foizini tashkil etadi. Hududining kattaligi bo'yicha O'rta Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. Aholisi mln kishi. Poytaxti Ashxobod shahri. Aholi zichligi 1 km. kv ga 11,1 kishi to'g'ri keladi. Respublika shimolda Qozog'iston, shimoli sharqdan O'zbekiston, janubda Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh. G'arbiy qismida Kaspiy dengizi joylashgan. Respublika indutsrial-agrar mamlakat bo'lib, iqtisodiyotining asosini sanoat tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida neft-gaz qazib chiqarish, hamda paxta etishtirish bilan ishtirok etadi. Turkmaniston chetga ko'proq neft va neft mahsulotlari, natriy-sulfat, elektroenergiya, tsement xom-ashyosi, paxta yog'i, poliz ekinlari, qorako'l tyerisi eksport qiladi. Bundan tashqari Turkmanistondan neft sanoati uchun mashina va uskunalar ham chetga sotiladi.

Turkmanistonning tabiiy sharoiti va yer usti tuzilishi juda xilma-xildir. Bu yerning relefida past tekisliklar, cho'kmalar, yirik cho'llar, tog' oralig'i botiqlari, balandligi 3 ming metr ga etadigan tog'lar uchraydi. Hududining 80 foizini qoraqum cho'llari egallagan bo'lib, cho'l shimoldan janubga 450 km, g'arbdan sharqqa esa 880 km ga cho'zilgan. Tog'li mintaqalar esa Respublikaning janubiy va janubiy sharqiy qismlarida joylashgan bo'lib, 8 foizga yaqin hududini egallaydi. (Turkman-Xuroson tog' sitsemasi).

Tog' oralig'i botiqlari, tog' oldi, daryo vodiylari, vohalar esa respublika hududining 12 foizini tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, respublikaning katta hududi tekisliklardan iborat bo'lib, sharqdan g'arbga (Kaspiy bo'yi) tomon pasayib boradi. Tekislikning katta qismi dengiz sathidan 0-200 metrgacha bo'lib, Kaspiy bo'yi pasttekisligi va Sariqamish ko'li dengiz sathidan pastda joylashgan. Eng past nuqtasi Oqjaksoy bo'lib, -81 metrdir.

Respublikaning iqlimi kontinental quruq iqlimdir. Qishi iliq, yozi issiq va quruq bo'ladi. Iqlimning issiqligi subtropik ekinlar etishtirish imkonin beradi. yog'in miqdorining kamligi tog'larda kam qor tushishiga sabab bo'ladi. Shu

sababli daryolari kichik va kam suvlidir. Turkmaniston hududining 80%da doimiy oqar suvlar yo'q. Daryolar asosan janubi sharqiy rayonlardagina mavjud. Eng yirik daryosi Amudaryo bo'lib, u respublikaning sharqiy qismidan oqib o'tadi. Kichik daryolardan Murg'ob, Tajan daryolarining suvi to'lig'icha sug'orishga sarf bo'ladi. Atrek daryosi esa o'z suvini Kaspiy dengiziga quyadi. Yaylov chorvachiligida yer osti suvlari katta ahamiyatga ega. Ko'llarining aksariyati sho'r ko'llardir.

Respublika iqtisodiyoti rivojlanishiga qoraqum kanali katta ta'sir ko'rsatgan.

Turkmaniston respublikasining mineral xom ashyolarga boyligi xo'jaligini kompleks rivojlantirishga imkon beradi. Respublika hududidan tabiiy gaz, neft, ozokyerit, ohaktosh, gips, granit, mirabilit (glauber tuzi), g'isht va sement xom ashyolari kabi turli foydali qazilmalar topilgan.

Respublika ayniqsa yoqilg'i enyergetika resurslarga boy. Mamlakat gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasida ikkinchi o'rinda turadi. (Rossiyadan keyin). Respublikada ettita neft-gaz mintaqasi ajratiladi.: G'arbiy Turkmaniston, Markaziy Qoraqum, Beurde- Xiva, CHorjo'y, Orqaungo'z, Murg'ob, Badxiz-Qorabel.

G'arbiy Turkmaniston neft-gaz mintaqasi G'arbiy Turkmaniston past tekisligida joylashgan. Yirik neft-gaz konlari CHEleken, Qoturtepa, Nebitdog', Qumdog', Qizilqum, Erdekli, Okarem, Keymir va boshqalar.

Markaziy Qoraqum gaz mintaqasida – Darvoza, Zeagli, Koyun, Midar kabi gaz konlari joylashgan. Bu mintaqada gaz qazib olish tannarxi qimmat bo'lganligi sababli to'liq foydalanilmaydi.

Bu erda – Xiva gaz mintaqasida uchta rayon ajratiladi.: Noip, G'ishtli, Beurda. Eng yirik gaz konlari Achak, Naip, G'ishtli, SHimoliy va Janubiy Naip va boshqalar.

Chorjo'y gaz mintaqasidagi eng asosiy gaz konlari Gugurtli, Sakar, Somontepa, Farob, Narazim kabilardir.

Murg'ob gaz mintaqasida esa Shatliq, Dauletobod, Donmez, Bayramali, Kelif, Sharopli, Tedjen, Seyrob va boshqalar.

Badxiz-Qorabel gaz mintaqasida Qorabel, Islim, Qaragop kabi gaz konlari topilgan.

Bundan tashqari respublika hududida ko'mir konlari ham topilgan. Ulardan asosiylari Tuarqir qo'ng'ir ko'mir, Yagmon va Ko'hitang toshko'mir konlari bo'lib, mahsulotning tannarxi qimmat bo'lganligi sababli ko'mir qazib olinmaydi.

Respublikada temir rudalari kam, faqatgina Ko'hitang tog'larida rux va qo'rg'oshin konlari topilgan. Shuningdek G'arbiy Kopetdog'da ham rangli metallar topilgan, lekin ularning sanoatda ahamiyati kam.

Turkmaniston respublikasi kimyoviy xom ashyolarga boy. Bu yerda oltingugurt, yod, brom, ozokyerit, osh tuzi, kaliy tuzi, sul'fat, natriy, magniy tuzlarining yirik zahiralari mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatning yirik oltingugurt koni Gourdog hisoblanadi. Gourdag oltingugurti Chorjo'y supyerfosfat zavodining asosiy xom-ashyosi hisoblanadi.

Cheleken yarim oroli va Nebitdog'da yirik yodobrom suvlari topilgan. Ular asosida Cheleken va Nebitdog' yodobrom zavodlari ishga tushirilgan.

Respublikaning Qorabo'g'oz-go'l qo'ltig'i yirik mineral tuzlar markazi hisoblanadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda mineral tuzlar qazib olinadi.

Turkmaniston qurilish xom ashyolariga boy. Yirik sement xom-ashyolari Baharden, Katta Bolxon, Bezmeinda joylashgan (Bezmein tsement zavodi). Shuningdek, mintaqada ko'plab kvartsl qumlar tarqalgan. Bular oyna sanoatining asosini tashkil etadi.

Respublika yer resurslariga boy. Lekin suv resurslarining etishmasligi ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Yer fondi 49 mln. ga atrofida bo'lib, shundan 6-7 mln. gasida sug'orib dehqonchilik qilish mumkin. Hozirgi kunda esa 1 mln. ga yer sug'oriladi xolos.

Mintaqa reliefi asosan tekislik bo'lganligi sababli sanoat korxonalarini qurilishi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Cho'llardan chorvachilikda yaylov sifatida foydalaniladi.

Iqlimi keskin kontinental, qurg'oqchil iqlim. Yozi issiq va quruq, qishi

yumshoq, qor kam yog'adi. Yanvarning o'rtacha temperaturasi shimoli-sharqda — 5° dan Atrek daryosi atrofida 4° gacha, ba'zi yillarda Toshhovuz viloyatida absolyut minimal temperatura —32° gacha. Iyulda shimoli -sharqda 28°, janubda 32°, absolyut maksimal temperatura 49,9° gacha. Turkmaniston hududining 80% da doimiy oqar suv yo'q; janubiy va sharqiy hududlardagina daryolar bor. Eng katta va sersuv daryo — Amudaryo. Bu daryoning suvi Qoraqum kanali orqali Bahardengacha borgan —900 km. Ko'llarning aksariyati sho'r. Chuchuk suvli Yasxan ko'li Nebitdog'ni ichimlik suv bilan ta'minlaydi. Tuproqlari — Ustyurt, Krasnovodsk, Orqa Unguz platolarida sur-qo'ng'ir, tog' etaklari, tog' yon bag'irlarining quyi qismida, tog' oldi tekisliklarida, tog'larning quyi mintaqasida bo'z tuproq, yuqorirokda to'q bo'z, tog' tepalarida tog'-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Qoraqum cho'lining aksariyatini qum egallagan; pastqam joylarda taqir, sho'rxok, daryo vodiylarida o'tloqi-bo'z va allyuvial-o'tloqi tuproqlar bor. Turkmaniston hududining taxminan 2% sug'oriladi. Turkmanistonning o'simlik va hayvonot dunyosi xilma-xil. Qumli cho'llarda oq va qora saksovul, qandim, cherkez, quyonsuyak, astragal kabi butalar, sho'rxok erlarda yulg'un, sarisazan, shoxilak va b., daryo vodiylaridagi to'qaylarda bachki terak-tol va jiydazorlar, Kopetdog' oldi cho'llarida va qirlarda shuvoq va har xil efemer o'tlar, tog'larning 1500 m dan yuqori qismida archa, G'arbiy Kopetdog' daralarida yovvoyi tok, olma, olcha, bodom, anor, yong'oq, anjir, pista daraxtlari o'sadi. Hayvonot dunyosi — cho'lda quyon, bo'ri, tulki, chiyabo'ri, jayran, tog'larda qoplon, arxar, morxo'r, Amudaryo vodiysida to'ng'iz, kiyik, qirg'ovul va b. yashaydi. Daryo va suv omborlarida baliq ko'p. Turkmaniston hududida Badxiz, Krasnovodsk, Repetek va b. qo'riqxonalar bor.

Turkmanistonning tabiati muhofazaga juda – juda muhtoj. Uning materik ichkarisida joylashganligi, aksariyat hududini qum barxanlaridan iborat bo'lgan Qoraqum massivi ishg'ol qilganligi, yog'in – sochin keltiradigan okean oqimlaridan juda uzoqda joylashganligi va butun mamlakat osmonida namgarchilikning, bulutli kunlarning kamligi, havo harorati barcha ko'rsatkichlarining MOD ning boshqa regionlariga nisbatan balandligi mamlakat tabiiy landshaftida o'simliklar olami

rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib turadi. Bu erda katta – katta qum massiv (barخان)lari bilan bir qatorda yalang'och tog'lar, o'simliksiz, suvsiz tog' tepaliklari, qir va adirlar behisobdir. Bu jo'g'rofiy sharoit mamlakatda tabiatga o'zgacha munosabat qilishni, uning har bir elementini ongli ravishda muhofaza ostiga olishni taqozo etadi. Buning aksi o'laroq mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bobida tabiatga antita'sir ham ko'rsatilmoqda.

1 – misol: Qoraqum kanalini qazish mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. Bu borada ibratli natijalar qo'lga kiritildi. Biroq, mazkur kanal-gigantning o'tkazilishi bilan uning atrofida yuzlab sho'r ko'llar paydo bo'ldi. Bu ko'llar dehqonchilik doirasiga tortilgan o'n ming gektarlab erlarning unumdorligini pasaytirib yubordi.

2 – misol: Neftga boy rayonlarda neft' va tabiiy gaz qazib olish va ularni qayta ishlash texnologiyasining takomillashmaganligi natijasida atrof – tevarak lanshaftiga putur etkaziladi.

Mustaqil Turkmaniston davlati o'z parlamentiga tabiatni muhofaza qilishning kompleks tadbirlarini (1992 yilda) ishlab chiqdi. Unda qum barخانlari harakatini to'xtatish, Qoraqum massivida o'qimliklar olamini himoya qilish, tuproqning sho'rlanishiga qarshi kurashish, Qoraqum kanalining suv o'tkazish darajasini yuqori saviyada saqlash, qurg'oqchil rayonlarda ixotazorlar barpo qilish, Amudaryo suvidan kompleks foydalanish muammolarini Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan hamkorlikda ishlab chiqish masalalari kun tartibiga qo'yilgan.

## 1.2. Aholisi va mehnat resurslari

Turkman etnosining qadimgi asosi dax - massaget va alan - sarmat qabilalari bo'lgan. Bu xalqning shakllanishida yana qadimgi davlatlar Marg'iyona, Parfiya va Xorazm aholisi ishtirok etgan. Eramizning I asrida hozirgi Turkmaniston hududiga qadimiy turk qabilalari kelib o'rnashishgan. IX - XI asrlarda o'g'uz (saljuq) qabilalari kirib kelishgan va ular turkman etnosining o'zagini tashkil etishadi. Turkman xalqining shakllanish jarayoni XV asrda tugallandi. Bu vaqtga qadar o'g'uz qabilalarining tarkibiga bir qancha boshqa qabilalarning xususan qipchoqlarning aralashuvi yuz berdi. Oktyabr to'ntarishiga qadar turkman xalqi bir qancha yirik qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ularning eng yiriklari hududiy jihatdan bir - biridan quyidagicha ajralgan edi: takinlar (Axal, Murg'ob va Tajan daryolari havzalari), yovmitlar (Kaspiybo'yi oblasti, Xiva xonligi), ersarilar (Amudaryo vodiysi), salirlar, sariqlar, go'klanlar, chavdarlar (Xiva xonligi). Shuningdek xo'jalik yuritish jihatdan turkmanlar chorvadorlar va dehqonlar (chamurlar)ga bo'lingan.

Turkmaniston aholisining soni jihatidan Markaziy Osiyo davlatlari orasida to'rtinchi o'rinda turadi. Bu erda ancha siyrak joylashgan. Markaziy Osiyo davlatlarida har bir km kv ga 13.8 kishi to'g'ri kelgani holda, Turkmanistonda aholi zichligi 9,21 kishiga teng. Aholining etnik kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. "Turkman" so'zi birinchi marta arab adibiyotida o'ninchi asrda tilga olinadi. "Turkmaniston" ya'ni "Turkmanlar mamlakati" so'zi esa o'rtaasrlardayoq mavjud bo'lgan.

Turmanlar tekin, salir, nomut, ersar, keradoshli, chovdur va boshqa qabila urug'laridan tarqalgan. Ular azal - azaldan tog' yon bag'irlari, daryo bo'ylarida yashagan. Hanuz Turkmanistonning asosiy aholisi vodiylarda, suv va temir yo'l bo'ylarida yashaydi.

Turkmaniston ko'pmillatli mamlakatlardan biri. Ahlining etnish foizini turkmanlar, 12 foizini ruslar, 8 foizini o'zbeklar, 3 foizini qozoqlar tashkil qiladi. SHuningdek bu erda tatar, ukrain, arman, ozarbayjon va boshqa millat vakillari

ham yashaydi. Aholining tabiiy o'sishi va takror ishlab chiqarish ancha yuqori. Respublika aholisi soni Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo'lgan tabiiy o'sish hisobiga ortib bormoqda (tug'ilish 28, o'lim 9. Tabiiy o'sish 19). Tabiiy o'sish turkmanlar va o'zbeklarda nisbatan yuqori. Boshqa millatlarda- evropa millatiga mansub kishilarda esa tabiiy o'sish deyarli sezilmaydi. Aholining yosh tarkibida 0-14 yoshdagilar 38% ni, 15-64 yoshdagilar 58% ni, 65 yoshdan yuqoridagilar atiga 45 ni tashkil etadi.

0-14 yoshdagilar orasida o'g'il bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. 15-64 yoshlilar o'rtasida esa ayollar erkaklarga nisbatan bir foiz ko'proqdir. Shuningdek bu nisbat respublika jami aholisi orasida ham kuzatiladi.

Turkmanlar respublikaning deyarli barcha hududlarida tarqalgan bo'lsa, rus va ukrainlar asosan yirik shaharlarda, o'zbeklar Chorjo'y Doshoguz viloyatlarida, kavkaz millatlari esa ko'proq g'arbiy Turkmanistonda—Kaspiy dengizi bo'yida istiqomat qilishadi. Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab evropa millatiga mansub kishilar ko'chib ketishdi. Respublika aholisining deyarli 45%i shaharlarda yashaydi. Aholi punktlari aholisining soni 5 mingdan ko'p bo'lsa va aholining 33%i sanoatda, xizmat ko'rsatishda band bo'lsa shahar deb ataladi.

Mamlakatda aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi birinchidan aholi zichligining tez ortib borishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchidan mehnat resursining tez ko'payishiga uning bandlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Asosiy shaharlari Ashgabat, Turkmanboshi, Tedjen, Mari, Chorjo'y, Doshoguz, Bayram-Ali va boshqalar. Shahar aholisi soni mexanik o'sish hisobiga (migratsiya) ortib bormoqda. Eng urbanizatsiyalashgan mintaqa Turkmanboshi hisoblanadi. Bu yerda 80% aholi shaharda yashaydi.

Shahar aholisi eng kam mintaqa Shimoliy Turkmaniston bo'lib, bu yerda jami aholining 30%i shaharlik. Keyingi paytlarda sanoatning o'sishi bilan shahar aholisining soni ham ortib bormoqda.

Aholi hududlar bo'yicha juda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi vohalarda: Kopetdog' etaklarida, Chorjo'y-Turkmanboshi temir yo'li bo'yida

hamda Murg'ob, Tajan vodiysida, Amudaryoning o'rta va quyi qismida yashashadi.

### **1.3. Turkmaniston Respublikasi xo'jaligi:**

#### **sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti.**

Turkmaniston industrial-agrar respublika. Uning xalq xo'jaligida sanoat etakchi o'rinda turadi. Respublikada yangi sanoat tarmoqlari –neftni qayta ishlash, gaz, kimyo, mashinasozlik bilan bir qatorda eski sanoat tarmoqlari neft qazib olish, metallsozlik, paxta tozalash va boshqalar rivojlangan.

Ayniqsa respublikada yoqilg'i-energetika kompleksi, engil sanoat, mashinasozlik va agrosanoat komplekslari katta ahamiyatga ega.

Yoqilg'i-energetika kompleksi. Respublikaning g'arbiy qismlaridan neft qazib olinadi. qazib olingan neft quvurlar orqali Turkmanboshiga (sobiq Krasnovodsk) keltiriladi. Keltirilgan neftning bir qismi dengiz yo'li orqali eksportga jo'natilsa, bir qismi mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanadi.

Zavoddan chiqqan mazut va yo'ldosh gaz IESlarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neft mahsulotlarining yana bir qismi ham eksportga ketadi.

Respublikaning sharqiy qismida Chorjo'y yaqinidagi Seydida 1980 yillarda qurilgan neftni qayta ishlash zavodi ishlab turibdi.(Sobiq Neftezavodsk).

Gaz deyarli barcha viloyatlar hududida bir necha o'nlab konlardan qazib olinadi(Doshoguzdan tashqari).

Gazning asosiy qismi O'rta Osiyo- Markaz magistral gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Bir qismi esa respublika ehtiyoji uchun ishlatiladi.(IESlarda) Mari shahrida gaz asosida ishlaydigan MARI GRESi qurilgan. Bundan tashqari shaharda tabiiy gaz asosida azotli o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Respublikada neft va gaz konlari asosida neft gaz- kimyo enyergiya ishlab chiqarish tesikllari shakllangan.

Lekin neft va gazning ko'pchiligi eksportga jo'natilganligi sababli enyergiya ishlab chiqarish tsiklining boshlang'ich qismi yaxshi rivojlangan . Bu yerda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan plastmassa ishlab chiqirish va polimyerlar kimyosi nisbatan kam rivojlangan.



Respublikada kimyoviy xom - ashyolar – mirabilit, yod, brom, oltingugurt qazib olish, hamda superfosfat zavodi asosida tog'- kimyo energiya ishlab-chiqarish tsikli tashkil topgan. Gourdak oltingugurti Chorjo'y kimyo kombinatiga keltiriladi va bu yerda supyerfosfat va oltingugurt kislotasi ishlab chiqariladi. Mintaqadagi Qora bo'g'oz go'l o'zining kimyoviy hom ashyolarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuningdek respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Cheleken va Nebitdog' kimyo korxonolari ahamiyati katta.

Turkmaniston respublikasida metallurgiya sanoati (qora va rangli) kam rivojlangan. Mashinasozlik sanoati korxonalarida neft sanoati uchun (Ashgobodagi neft mashinasozligi Mariy mashinasozlik zavodi) hamda oziq-ovqat uchun mashina va dastgohlar ishlab chiqarilgan.

Bundan tashqari elektrotexnika mashinasozligi (Ashgabad), maishiy xizmat ko'rsatish mashinasozligi (gaz plitalari ishlab chiqarish), kemasozlik zavodi

(Turkmanobot(Chorjo'y)) metallni qayta ishlash, hamda qishloq xo'jalik texnikalariga xizmat ko'rsatish korxonalari ishlab turibdi.

Respublikada qurilish materiallari sanoati ham mahalliy qurilish xom-ashyolari asosida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa sement xom-ashyolari, gips, ohaktosh kabi qurilish xom-ashyolari ko'plab topilgan.

Mamlakatdagi yirik sement xom-ashyolari Kopettog' etaklarida, katta Balxan va Nebitdog'da topilgan.

Bezmein sement xom - ashyosi asosida Markaziy Osiyodagi yirik sement zavodi ishga tushirilgan.

Mamlakatning asosiy qurilish materiallari sanoati markazlari Ashgabad, Bezmein, Mari, Turkmanobot (Chorjo'y), Turkmanboshi, Nebitdog' va boshqalar.

Engil sanoat respublika iqtisodiyotida etakchi tarmoqlardan biridir. Engil sanoatning 2/3 qismini ip-gazlama mahsulotlari tashkil etadi. Respublikada etishtiriladigan paxtaning deyarli hammasi paxta tozalash zavodlarida qayta ishlanadi.

Respublikada engil sanoat tarmoqlari: - to'qimachilik, tikuvchilik, shoyi to'qish, jun, gilam, trikotaj, poyafzal va boshqalar yaxshi rivojlangan. SHuningdek, qorako'l tyerilari ishlab chiqarish ham katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatda qo'lda gilam to'qish rivojlangan bo'lib, ularning yirik markazlari Ashgabad, Gasan-ko'li, Nebit-Dog', Bahorden, Serdar (Qizil-Arvat), Mari, Doshoguz va boshqalardir.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ko'plab iste'mol mahsulotlari ishlab chiqariladi. Respublikada sabzavot, meva, go'sht-sut, baliq konsyervalari ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda paxta yog'i ishlab chiqarish Turkmanobot (Chorjo'y), Doshoguz, Bayramali shaharlarida yaxshi rivojlangan. Ashgabad, Mari, Turkmanobot (Chorjo'y), Turkmanboshi kabi shaharlarda yirik go'sht kombinatlari ishlab turibdi.

Turkmaniston qishloq xo'jaligida sug'orib dehqonchilik qilish bilan bir qatorda cho'l-yaylov chorvachiligi rivojlangan.

Paxtachilik – dehqonchilik ekinlarining asosini tashkil etadi. Respublikada 1 mln. ga sug'oriladigan yer bo'lib, asosan Qoraqum kanali bo'ylariga to'g'ri keladi. Bu yerda respublikada etishtiriladigan paxtaning 50%, ingichka tolali paxtaning



deyarli 100% i tayyorlanadi. Mari, Chorjoy, Doshoguz viloyatlarining ko'pchilik maydonlariga paxta ekiladi. So'nggi yillarda respublikada don, meva va uzum etishtirish ham ortib bormoqda.

Respublikada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Unda etakchi tarmoq qo'ychilik bo'lib, asosan qorako'l qo'ylari boqiladi. Respublikaning cho'l mintaqalari qo'y boqiladigan yaylovlar hisoblanadi. SHuningdek, respublikada qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik (Axaltekin zotli) ham muhim chorvachilik tarmoqlaridir.

Qormolchilik respublikada sut-go'sht etishtirishga ixtisoslashgan.

Cho'l mintaqasining tipik chorvachiligi – tuyachilikdir. Tuyalar go'shti, tyerisi, transport maqsadida foydalanish uchun boqiladi. Ayniqsa, Turkmanboshi va Ashgabad viloyatlariga tuyaning ko'pchiligi (50%) to'g'ri keladi.

Yilqichilik – ham tuyachilik kabi go'shti, suti va transport vzifasida foydalanish uchun boqiladi. Respublikada Axaltekin, yovmud kabi zotdor otlar boqiladi. Bu otlar chet ellarda ham ancha mashhur. Axaltekin otlari ko'proq Mari

va Ashgabad viloyatlarida boqiladi. Bu otlar juda chopqir bo'lib, qurg'oqchil mintaqalarga chidamlidir.



Yovmud zotdor otlari esa ko'proq yuk tashishda foydalaniladi. Ular asosan Turkmanboshi hamda Doshoguz viloyatlarida boqiladi.

Bundan tashqari, respublika chorvachiligida asalarichilik hamda pillachilik ham muhim ahamiyatga egadir.



Respublikada deyarli barcha transport turlari mavjud. Mamlakat maydonining 80% qismi cho'llar bo'lganligi uchun bu yerlarda transport xizmatini yo'lga qo'yish ancha qiyin.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini temir yo'l, avtomobil, suv va havo transportlari orqali olib borsa, ichki rayonlararo aloqalar avtomobil va havo yo'llari orqali olib boriladi.

Respublika transportlari orasida temir yo'l transporti etakchi o'rinda turadi. Uning hissasiga yuk tashishning 75%i, passajir tashishning esa 25% qismi to'g'ri keladi. Dastlabki temir yo'l Kaspiy orti temir yo'li bo'lib, 1880-86 yillarda qurilgan.

Bundan tashqari Mari-Kushka, Kogon-Kyerkichi-Tyermez, Toshkent-Turkmanboshi, Chorjoy-Doshoguz-Qo'ng'irotd-Beynov kabi yo'llar qurilgan. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqil bo'lganlaridan so'ng Tedjen-Syeraxs-Mashhad(Eron) temir yo'li ishga tushirildi.

Rayonlararo aloqalarni olib borishda avtomobil transporti etakchilik qiladi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 13 ming km dan ortadi. Asosiy avtomagistrallar Turkmanboshi-Syerdar-Ashgabad-Mari-Turkmanobot, Mari-YOlaton-Syerxetobot, Turkmanobot-Darg'onota-Urganch-Doshoguz, NebitDog'-CHEleken-Ashgabad-Baharden-Erbent va boshqalardir.

Kaspiy dengizida suv transporti rivojlangan. Yirik portlari Turkmanboshi, Bekdash, Alacha. Turkmanboshidan – Bokugacha parom yo'li o'tkazilgan.



Suv yo'llari orqali paxta tolasi, qurilish materiallari, neft mahsulotlari va boshqalar tashiladi. Amudaryoda daryo kemachiligi rivojlangan. Daryo portlari Turkmanobot, Kyerki, Kelif.

Havo ttransporti - Respublikani xorijiy va MDH davlatlari bilan bog'laydi. Havo orqali asosan passajirlar, tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlari va qimmatbaho yuklar tashiladi.

Respublika iqtisodiyotining rivojlanishida quvur transportining ahamiyati katta. quvur transporti neft, gaz va ichimlik suv tashishda ancha qulay hisoblanadi.

Respublikada dastlabki neft quvuri 1946 yilda ishga tushgan bo'lib, u Qum-Dog'dan-Vishkachaga tortilgan (40 km). Keyinchalik Vishka-Turkmanboshi, Qoturtepa-Belek-Turkmanboshi, Qoturtepa-Cheleken va boshqalar ishga tushiriladi. Dastlabki gaz quvuri 1952 yilda Vishkadan – Nebit-Dog'ga tortilgan. Bundan tashqari Qumdog'-Nebit-Dog', Qoturtepa-Belek-Turkmanboshi-Beshdosh-Yangi O'zen gaz quvurlari ishga tushiriladi. Ayniqsa, Maysk-Ashgabad-Bezmein (396 km uzunligi) gaz quvuri respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublika gaz quvurlari uzunligi yildan - yilga ortib bormoqda.

Respublikada deyarli barcha transport turlari mavjud. Mamlakat maydonining 80% qismi cho'llar bo'lganligi uchun bu erlarda transport xizmatini yo'lga qo'yish ancha qiyin.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini temir yo'l, avtomobil, suv va havo transportlari orqali olib borsa, ichki rayonlararo aloqalar avtomobil va havo yo'llari orqali olib boriladi.

Tayonlararo aloqalarni olib borishda avtomobil transporti etakchilik qiladi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 13 ming km dan ortadi. Asosiy avtomagistrallar Turkmanboshi-Qizil, Arvat-Ashgabad-Mari-Chorjoy, Mari-Iolaton-Kushka, Chorjoy-Darg'on ota- Urganch-Toshhovuz, Nebit-Dog'-Cheleken-Ashgabad-Boxorden-Erbent va boshqalardir.

Kaspiy dengizida suv transporti rivojlangan. Yirik portlari Turkmanboshi, Bekdash, Alacha Turkmanboshidan – Bokugacha parom yo'li o'tkazilgan.

**Turkmaniston respublikasi hududi iqtisodiy geografik nuqtai nazardan  
5 ta iqtisodiy rayonga ajratiladi:**

Markaziy iqtisodiy rayon;

G'arbiy iqtisodiy rayon;

Janubiy iqtisodiy rayon;

Sharqiy iqtisodiy rayon;

Shimoliy iqtisodiy rayon.

Barcha iqtisodiy rayonlar aholisining joylashuvi, sug'oriladigan yerlar va sanoat korxonalarini yoki cho'llardagi aholi yashash imkoniyati bo'lgan vohalardan iboratligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

**Markaziy iqtisodiy rayon** (Axal velayati) respublikaning janubiy qismida joylashgan. U respublika hududining 19,6%ini, aholisining esa 25%ini tashkil etadi.

Mintaqa hududida Kopetdog' tog'i va tog' oralig'i vodiylari hamda Markaziy Qoraqum cho'lining bir qismi joylashgan. Respublika aholisining asosiy qismi shu yerda bo'lib, aholi zichligi eng yuqori, ya'ni, 1km<sup>2</sup> ga 10 kishi to'g'ri keladi. Aholisining 3,5 qismi shaharlarda yashaydi.

Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mintaqaga bo'lib, bu yerda zamonaviy mashinasozlik, engil va oziq-ovqat, qurilish matyeriallari va boshqa ko'plab korxonalar ishlab turibdi. Mintaqada respublika sanoat mahsulotining 25 %i tayyorlanadi. Ayniqsa, gilam to'qish katta ahamiyatga ega.

Markaziy rayon ingichka tolali paxta etishtirish bo'yicha Janubiy-Sharqiy rayondan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. SHuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzum etishtirish, chorvachilikda esa qo'ychilik (qorako'lchilik), hamda yirik shoxli qoramollar boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Mintaqaga respublikaning 23 % ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu yerda Turkmanistonning 35 % bug'doyi, 11% paxtasi, 60% sabzavot ekinlari va boshqalar etishtiriladi.

Mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga Ashgabad temir yo'li katta ta'sir etadi. Temir yo'li bo'ylarida ko'plab aholi punktlari joylashgan.

Rayonning eng yirik sanoat va madaniyat markazi Ashgabad shahri bo'lib, shahar MDH davlatlarining eng janubida joylashgan. Hozirgi kunda Ashgabat Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarini tutashtiruvchi muhim transport tuguni hisoblanadi. Shaharda engil va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika, metallsozlik va boshqa sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Ashgabat yaqinida Bezmein shahri joylashgan. Bu shaharda og'ir sanoat tarmoqlaridan – tsement va boshqa qurilish matyeriallari, elektroenergetika kabilar rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridan vino ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tajan – mintaqadagi yirik shaharlardan biridir. Shaharda gilam to'qish, g'isht zavodi, elektrostantsiyalar va boshqa sanoat korxonalari ishga tushirilgan. Ayniqsa, gilam to'qish qadimgi tarmoqlardan biridir. Aholisining asosiy qismi turkmanlar. Bulardan tashqari ruslar, qozoqlar, arman, ukrain va boshqalar istiqomat qilishadi.

Rayonning Kopetdog' etaklarida go'zal va xushmanzara dam olish maskanlari joylashgan (Fyero'za). Qoraqum kanali asosida paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik rivojlangan. Cho'l yaylovlarida esa qo'ychilik bilan shug'ullanishadi.

G'arbiy Turkmaniston (Bolxon velayati)- respublikaning katta hududini, ya'ni 28,5 %ini aholisining esa 11%ini tashkil etadi.

Rayon Kaspiy dengiz bo'yidan tortib sharqda Kopetdog' etaklari va G'arbiy Qoraqumgacha cho'zilgan. Bu Turkmanistonning eng issiq mintaqalaridan biridir.

Hududida oqar suvlar deyarli yo'q. Shuning uchun aholi soni kam. Lekin sanoat rivojlanganligi sababli aholining asosiy qismi (80%i) shaharlarda istiqomat qiladi. Bu mamlakatning eng urbanizatsiyalashgan mintaqasidir.

Aholining milliy tarkibida Evropa millatiga mansub kishilar (ruslar, ukrainlar, evreylar, armanlar, ozarbayjonlar va boshqalar) ko'pchilikni tashkil etadi.

**G'arbiy Turkmaniston** boshqa rayonlardan tabiiy resurslarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Respublikadagi asosiy neft konlari shu mintaqaga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Turkmanboshidan shimolda yirik osh tuzi koni, Qorabo'g'ozgo'lda glaubyer tuzi, Xazar(Cheleken)da ozokerit konlari topilgan. Rayonda tsement xom-ashyolari, ohaktosh kabi qurilish matyeriallari ham ko'p.

Mintaqada neft va kimyo sanoati, elektroenergetika qurilish matyeriallari sanoati yaxshi rivojlangan. Xo'jaligining rivojlanishida Kaspiy dengizidagi baliqchilik katta ahamiyatga ega. Turkmanboshi porti Markaziy Osiyo davlatlari va Kavkaz orti mamlakatlari orasidagi darvoza hisoblanadi.

Suvning yo'qligi sababli qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanmagan. Ayniqsa, dehqonchilik. Chorvachilikda qo'ychilik hamda tuyachilik etakchi tarmoqlardandir.

Mintaqaning asosiy shaharlari Turkmanboshi, Bolxonobod(Nebitdog'), Xazar (Cheleken), Serdar, qozonjiq va boshqalar. Shaharlarning ko'pchiligi temir yo'llar yonida yoki dengiz bo'yida lentasimon joylashgan.

Turkmanboshi (sobiq Krasnovodsk) G'arbiy mintaqaning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lib, 1896 yilda harbiy qal'a sifatida tashkil topgan. Turkmanboshi Kaspiy dengizining Sharqiy sohilidagi yirik port shahri bo'lib, neftni qayta ishlash va baliqni qayta ishlash sanoatlari yaxshi rivojlangan. Bu yerga neft neft quvurlari orqali Nebitdog' va boshqa konlardan keltiriladi.

Turkmanboshidan Janubiy Sharqda Katta Balxan etaklarida – Bolxonobod (Nebitdog') shahri joylashgan. Bolxonobod Turkmanistonning neft - gaz qazib olish markazi hisoblanadi. Shaharda oziq-ovqat sanoati, uysozlik kombinati, yod zavodi kabi korxonalar ishga tushirilgan. Ayollar gilam to'qish ishlari bilan band.

Iqtisodiy rayonning yana bir muhim shaharlaridan biri Xazar (Cheleken) dir. Xazar o'zining kimyoviy xom ashyolari bilan mashhur. Xazardan ko'plab miqdorda mirabilit, ozokerit kabi xom ashyolar olib ketiladi. Bu yerda kimyo zavodi mavjud.

Shu bilan birga Cheleken yarim orolida sog'lomlashtirish maskanlari uchun imkoniyatlari katta. Rayon aholisi mineral suvlardan revmatizm, teri va boshqa kasalliklarni davolashda foydalanadi.

Qorabo'g'ozgo'l ham o'zining kimyoviy xom ashyolari bilan ajralib turadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda glaubyer tuzi, (mirobilit), natriy, magniy, brom, yod va boshqa mineral tuzlar qazib olinadi. Xom ashyolarni qayta ishlash maqsadida «qora-bo'g'oz-sulfat» kombinati ishlab turibdi.

**Janubiy Turkmaniston** (Mari viloyati)-Respublikaning 18%ga yaqin hududini, 23% aholisini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv ga 9 kishi to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi nisbatan past bo'lib, 33%ni tashkil etadi.

Mintaqaning iqlim sharoiti qulay bo'lib, vegetatsiya davrida sutkalik harorat 10 gradusdan yuqori bo'lib, 240-250 kun quyoshli bo'ladi. Qoraqum kanalining o'tishi mintaqa iqlimining va xo'jaligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi.

Janubiy-Sharqiy rayonga respublikaning 40% ekin maydoni to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarda ingichka tolali paxta etishtiriladi. Shuningdek, bog'dorchilik, sabzovotchilik, pillachilik shahar atroflarida esa sut chorvachiligi rivojlangan (mintaqa sug'oriladigan yerlarida respublikaning 33% yirik shoxli qoramollari boqiladi.) Cho'llardan yaylov sifatida foydalaniladi. Bu yerda Respublikada boqiladigan qorako'l qo'ylarining 50%i to'plangan.

Janubiy-Sharqiy rayon respublikaning 35% paxtasini, 60% ga yaqin qorako'l tyerisini, 55% o'simlik yog'ini, 25% atrofida pillasini va boshqa mahsulotlarni etkazib byeradi. Rayonda zotdor Axaltekin otlari boqiladi.

Rayon xo'jaligi dastlabki vaqtlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan edi. Hozirgi kunda yirik gaz konlarining topilishi (Sharapli, Qora-Chop, Shatlik) xo'jaligining rivojlanishiga imkon beradi.

Asosiy sanoat markazlari Mari, Bayram-Ali, Mari - Mari viloyatining ma'muriy markazidir. Bu shahar Murg'ob-Tajan vohasining eng yirik sanoat va transport markazi. Ayniqsa, shaharda engil sanoat yaxshi rivojlangan. Bu yerda to'qimachilik, jun yuvish, paxta tozalash, tyeri zavodi hamda, oziq-ovqat sanoati korxonalarini mavjud. Shuningdek, metallni qayta ishlash, motor remont zavodi,

azot o'g'itlar zavodi kabi og'ir sanoat tarmoqlari ham rivojlangan. Shaharda mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan eng yirik GRES ishga tushirilgan.

Marining janubiy sharqida Bayram-Ali shahri joylashgan. Bu shahar Murg'ob deltasida, qulay tabiiy sharoitli bo'lib, o'zining sanatoriyalari bilan mashhur. Bu yerda MDH davlatlaridan kelgan dam oluvchi va davolanuvchilar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Shaharda paxta tozalash va yog' ekstratsiya zavodi joylashgan.

SHuningdek, mintaqada Yoloton, Tajan, Syerxetobot kabi boshqa sanoat markazlari ham bor.

**Sharqiy iqtisodiy rayon** (Chorjo'y viloyati) respublika hududining 20%ga yaqinini, aholisining esa 21%ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv.ga 8 kishi to'g'ri keladi. Aholining 50%ga yaqini shaharlarda, mintaqaning bevosita 35%ga yaqin qismi aholisi Turkmanobot (Chorjo'y) va Kyerkida yashaydi. Rayon Amudaryoning har ikki sohilida joylashgan. Chorjo'y viloyatida ham sug'orib dehqonchilik qilish ustun turadi. Sug'orilaligan yerlarda paxtachilik rivojlangan. SHuningdek qorako'lechilik va pillachilik ham etakchi tarmoqlardir. Mintaqa respublikada etishtiriladigan paxtaning 25%ini, tayyorlanadigan shoyining esa 95%dan ko'pini tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati bilan birga, metallsozlik va tog'-kon sanoati rivojlangan. Rayonning janubidagi tog'larda turli foydali qazilmalar, mineral tuzlar, qurilish matyeriallari, mis, rux, oltingugurt va boshqalar topilgan. Mintaqada Respublikaning deyarli 60% gazi qazib olinadi.

Ayniqsa bu yerda mineral o'g'itlar va oltingugurt ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Oltingugurt Gaurdak konidan qazib olinadi. Oltingugurt va boshqa mineral tuzlar asosida Gaurdak tog'-kimyo sanoati rivojlangan.

Ko'hitangdan uncha uzoq bo'lmagan masofadan rux, uning atrofida esa neft va gaz konlari topilgan. Bular asosida cho'lda kimyo sanoati markazi – Neftezavodsk(Seydi)shahri tashkil topgan. Mintaqa hududida MDHdagi yirik Korlyuk va Qorabel kabi kaliy tuzlari konlari topilgan.

Mintaqa boshqa rayonlarga nisbatan suv bilan yaxshi ta'minlangan. Bu kam suvli respublika uchun kamdan-kam uchraydigan hodisadir.

Amudaryo bo'ylarida qizilmiya o'simligi o'sadi. Bu o'simlikdan dori-darmon tayyorlashda, salqin ichimliklar, sigareta, kosmetika kabi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu o'simlikka jahon bozorida ham talab kattadir.

Turkmanobot sharqiy rayonning eng yirik shahri bo'lib, respublikada aholi soni bo'yicha Ashgabadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Shahar daryo va temir yo'l bo'yida joylashgan bo'lib, muhim transport tugunini tashkil etadi. Qadimda Chorjo'y Buxoro amirligining muhim qal'alaridan bo'lgan.

Hozirgi kunda shahar yirik sanoati rivojlangan markazdir. Ayrim sanoat korxonalari qishloq xo'jalik mahsulotlarini (paxta) qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bular paxta tozalash, trikotaj, to'qimachilik fabrikalaridir. Shuningdek, pillachilik fabrikasi, qorako'l tyerilari ishlab chiqarish zavodi ham muhim ahamiyatga ega.

Turkmanobot shahri temir yo'l va daryo yo'li bo'yida joylashganligi sababli neftni qayta ishlash, kemasozlik, avtoremont, ekskavator remonti zavodi kabilar ishlab turibdi. Kimyo sanoatida yirik supyerfosfat zavodi alohida o'rinda turadi.

Turkmanobot shahri daryo bo'ylab cho'zilgan, o'simlikka boy go'zal manzarali shahardir. Shaharda bir qancha o'quv yurtlari, muzey va boshqa madaniyat maskanlari mavjud.

**Shimoliy iqtisodiy rayon** Doshoguz viloyatidan iborat. Rayon respublika hududining 13% ni, aholisining esa 20% ni tashkil etadi.

Aholi zichligi 1 km kv ga 9 kishini tashkil etadi. Rayon respublikaning shimoliy qismida Amudaryo deltasida, Sariqamish ko'li va Shimoliy Qoraqum cho'lining bir qismida joylashgan. Doshoguz respublikadagi qadimgi sug'oriladigan mintaqadir. Hozirgi kunda bu yerda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik rivojlangan maydonlar ko'p. Bog'dorchilik ayniqsa, poliz ekinlaridan syershira qovunlari mashhur. Mintaqa yirik qishloq xo'jalik rayoni bo'lib, sug'orib dehqonchilik qilishga ixtisoslashgan. Mintaqa hududidan ko'plab

sug'oruv kanallari o'tgan. (Tosh-Soqa, Qilich-Niyozboy, Qipchoq-Bozsu va boshqalar).

Iqlimi nisbatan quruq, qishi sovuq, yozi qisqa, lekin bu yerda o'rta pishar paxta etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shimoliy rayon respublikaning 1/5 foiz ekin ekiladigan maydoni, jumladan 1/4 foiz paxta maydonini tashkil etadi. Mintaqa sholi, oqjo'xori, kanop etishtirish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi. Shuningdek bu yerda makkajo'xori va uzum etishtiriladi.

Bu yerda respublikaning 20 foiz pillasi tayyorlanadi. Shimoliy mintaqada so'nggi yillarda chorvachilik, ayniqsa qo'ychilik rivojlanib bormoqda. Qo'ylar asosan Sariqamish ko'li atroflarida boqiladi. Mintaqaning iqtisodiy va madaniy markazi Doshoguz shahri bo'lib, Amudaryoning quyi qismida, temir yo'l yoqasida joylashgan. Shahar 19-asrlarda Xiva xonligi qal'asi sifatida vujudga kelgan. Aholisi asosan o'zbeklardan iborat.

Sobiq sovetlar davrida Doshoguz yirik sanoat va transport markazi sifatida rivojlandi. Chorjo'y-Qo'ng'iro't-Beynov temir yo'lining qurilishi shaharning iqtisodiy aloqalarini kuchaytirdi. Shaharni Shovot magistral kanali ikki qismga eski va yangi shaharga bo'lib turadi. Shaharda bir qancha sanoat korxonalari – paxta tozalash, yog'-moy, non, avtoremont, qishloq xo'jalik mashinalari remonti zavodi va boshqalar ishga tushirilgan. Shuningdek, shaharda milliy hunarmandchilik – gilam to'qish va kulolchilik yaxshi rivojlangan.

## **II BOB. TURKMANISTON RESPUBLIKASI MAVZUSINING UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITILISHI**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni bosqichma - bosqich amalga oshirish borasida belgilangan maqsad va vazifalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Biz tarbiyalayotgan barkamol avlod muqaddas sanalishi, Vatanni astoydil sevadigan va qadriga etadigan, mustaqil buyuk O'zbekiston uchun jon fido qiladigan ilmi - hunarli yoshlar bo'lib etishishlariga erishish uchun biz murabbiylarga tinimsiz izlanib, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishda mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondoshgan holda muammo echimini topa oladigan, o'z maqsadi sari intila olishni o'rgatish, ularning intellektual salohiyatini oshirish, o'qish va mushohada etuvchi, o'z - o'zini boshqarishga o'rgatish bo'yicha o'z bilim ummonlarimiz chashmasidan ularni tinimsiz bahramand qilish bizning burchimizdir. Respublikada o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi tizimidagi akademik liqeylar va kasb - hunar kollejlarning umumiy soni 1537 ta bo'lib, jumladan kasb - hunar kollejlari 1396 ta, akademik liqeylar 141 tani tashkil qiladi. Ularda 1719221 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

O'quvchilarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovaion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

Barkamol insonni shakllantirishda asosiy tarbiyaning fidoyi, mustahkam fikrly oladigan, xulq - atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagog uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarq etmay, qisqa vaqt ichida ham pedagogni, ham talabani bksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat etish, ular tomonidan egallangan bilim,

ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv talab etadi.

## **2.1. Mavzuning umumta'lim maktablarida o'qitilishida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar**

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylanib qoldi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innova $\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}$ ion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'qitish jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib borishi sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi - talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarib olishga o'rgatadi. O'quvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funk $\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}$ iyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innova $\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}$ iya – (inglizcha inovatsion) yangilik kiritish, yangilikdir.

Innova $\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}\text{\cyril{c}}$ ion texnologiyalarni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol usullar – bu jamoa bo'lib ta'lim jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.


Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O'quvchi talabaning dars davomida befarq bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etadi;
- O'quvchi – talabalarni o'quv jarayonida bilimga qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- O'quvchi – talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yonjoshgan holda kuchaytirish;

- Pedagog va o'quvchi – talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish.

Yangi pedagogik texnologiyalar masalalri muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiyalar - bu faqat axborot texnologiyalari bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan TSO dan pyuntr, masala o'qitish yoki turli xil texnologiyalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bilan o'qituvchi bilan o'quvchi talabining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natija hamkorlikda mukammal uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblanadi.

**Ushbu fikrlarni chizma holida quyidagicha izohlash mumkin:**



Yuqoridagi chizmada ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishishda o'qituvchi ham, o'quvchining ham hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan tayyorlash lozim.

O'quvchi va o'qituvchining muayyan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashi ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq, natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchining bilim salohiyati guruh xarakteri sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan natijaga erishish uchun bilim, komp'yuter bilan ishlash lozimdir, tarqatma material, chizma

va plakatlar, masalan, turli xil adabiyotlar, axborot texnologiyalari kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va o'quvchining talabiga bog'liq bo'ladi.

O'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina kerakli ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha qilib aytganda o'quvchini doimiy markazga olib chiqish kerak.

O'quvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni etishi uchun dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o'qituvchi u tomonidan bo'lajak darsni texnologiya xususiyatini bilib olish katta ahamiyatga egadir.

Geografik ta'lim jarayonida o'quvchilar faollashsa ilm olishga bo'lgan ehtiyoji ortadi, o'quvchi ma'lumotni bayon etishi o'quvchilar esa faqatgina tinglovchi bo'lib qolmaydi.

YAngi bilimlarni o'rganish uchun o'quvchi o'z fikrini qo'shsa muayyan mehnat faollikka, yangi bilim ma'lumotlarni puxtalashtirish xotirada uzoq saqlash imkoniyati vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 2001 – 2005 yillari komp'yuter va axborot texnologiyalarini qo'llash, “Internet”ning xalqaro axborot tarmog'iga keng kirib borishini mustahkamlash darajasini ishlab chiqarishini tashkil etishga qabul qilingan.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib quyidagi jadvalni to'ldiramiz:

***An'anaviy va zamonaviy ta'limning farqlari:***

Ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	An'anaviy ta'lim jarayoni	YAngi pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayoni
Pedagogik munosabat turi	Sub'ekt - ob'ekt	Sub'ekt – ob'ekt
Pedagogik munosabat tamoyili	Avtoritor	Insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'zaro hamkorlik
Darsning maqsadi	Bilimni o'zlashtirish ko'nikma ma malakalar hosil qilish o'quv materiallarini tushunish	SHaxsning qiziqishi, motivini rivojlantirish, aqliy va jismoniy barkamollikka etishishini ta'minlash

Ta'limning harakatlantiruvchi kuchi	Tahdid, buyruq, ta'qiqlash. Baholashda taqqoslash, shaxsni kamsitish yoki rag'batlantirish	Bilim quvonchi, o'zidagi ijobiy o'zgarishni his qilish, o'ziga va o'z bilimiga ishonchning paydo bo'lishi, o'zini va boshqalarni hurmat qilishi, o'zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy psixologik muhit
Darsda faoliyat usuli	Takrorlash, mashq qilish, yodlash, munozara, amaliy ish	Hamkorlikda tadqiqot o'rganish, muammoli suhbat, aqliy hujum, munozara, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida inosnparvarlik munosabatlarini shakllantirish
Darsni tashkil qilish	Uy vazifasini so'rash, yangi bilimlarni o'rganish, umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash, baholash	Muammoli savollarga javob topish, bilimlarni yangi va mukammal vaziyatlarda qo'llash, individual va guruhli tadqiqotlar, ishlanmlar orqali umumiy tushuncha berish
O'qituvchining roli	Bilim va axborot manbai, o'quvchi taqdiriga javobgar, yakka hokim	Hamkor, do'st, maslahatchi, muammoni hal qilish, bilimni egallash usullarini o'rgatuvchi g'amxo'r ustoz
O'quvchining vazifasi	Axborot qabul qilish, yodlash, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish va tegishli bahoni olish	O'quv topshiriqlarini va muammoni hal etishga oid interfaol guruhlarda ishlashni tashkil etish, doimo o'z bilimini oshirib, boyitib va mustahkamlash maqsadida mehnat qilish, o'zini, iste'dodini namoyon qilish
O'qituvchining vazifasi	Bilimlarni o'zlashtirishda eng oson shaklida bayon etish	O'quv va amaliy vazifani hal etishda o'quvchilarning faol ishtiroki va o'quv bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar yanada kuchaydi. O'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi o'quvchilarning aksariyati (yuqori sinflar misolida 70 - 75 foizi) o'qishga qiziqmay qo'yishdi. Buning sabablaridan biri dars mobaynida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida umuman muloqotning yo'qligidir. Shuningdek, maktabda, o'rta - maxsus

o'quv yurtlarida hamkorlik pedagogikasi, xalq tarbiyashunosligi va pedagogik ruhshunoslar xizmati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir. Umuman olganda muallim o'zining kuchli va zaif tomonlarini har doim anglashi kerak. Ayrim muallimlar o'zining zaif tomonlarini, ayniqsa, bilimsiz ekanliklarini yopish uchun o'quvchiga ortiqcha talablar qo'yadilar. O'qituvchining bo'sh tomonini esa o'quvchi tez anglaydi. Shuning uchun hadiksirab emas, balki, o'qituvchi hurmatini joyiga qo'yib munosabatga kirishishi mumkin. Bunday ruhiy kayfiyatni ba'zan o'qituvchi sezmaydi. O'quvchi esa muallimni har doim kuzatib boradi. Undan iliq gap, mehr - muruvvat kutadi.

Hozir fanda ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish muammosi turibdi. SHunday sharoitda o'qituvchining tashqi qiyofasi ham ba'zan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Lekin bularning ichida eng muhimi - eng zaruri va o'quvchi uchun eng ahamiyatlisi - o'qituvchining bilimdonligi, yangilik va dunyoviy bilimlarga chanqoqligi hamda uning so'zi bilan ishining muvofiq kelishidir hamda o'quvchilarni izlanishga, bilimlarni mustaqil egallashga, har bir fanning mohiyatin tushunishga, ishga ijodiy yondoshishga undash va o'quvchining erkin fikrlashi, mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishdir.

## **2.2. Turkmaniston Respublikasi mavzusining umumta'lim maktablarida o'qitilishida ko'rgazmali qurollardan foydalanish**

«Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda, Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13 maydagi 203 sonli qarori bajarilishini ta'minlash, ta'lim mazmuniga islohatlarning bosh maqsadidan keyin chiqqan holda zarur o'zgartirishlar kiritish uning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 1998 -1999 o'quv yilida ta'lim muassasalarida tajriba sinovdan o'tgan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'limi standartlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

1998 -1999 o'quv yilida ta'lim muassasalarida tajriba sinovdan o'tgan umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlari va rejalarini belgilangan tartibda tasdiqlansin:

1999 - 2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'limning (muassasalarida) DTSlarni umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari bilan birgalikda quyidagicha bosqichma bosqich joriy etsin:

- 1999 - 2000 o'quv yili 5 - 6 sinflar;
- 2000 - 2001 o'quv yili 7 - sinf;
- 2001 - 2002 o'quv yili 8 - sinf;
- 2002 - 2003 o'quv yili 9 - sinf

Vazirlar mahkamasining raisi I.Karimov

1999 yil 16 avgust Toshkent shahri.

Umumiy o'rta ta'limning DTS o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab boradi.

DTS ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baxolash tartibini belgilaydi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar,

qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

DTSning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'lishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta ta'lim DTSni ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlar asos qilib olindi.

«Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh bilan bog'liq farmonlari, farmoishlari va asarlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun DTSlarini ishlab chiqarish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5 son hamda «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13 maydagi 203 - son qarorlari;

O'zRST 1.0-92. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

O'zRST 1.1-92. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi. O'zbekiston Respublikasining davlat standartini ishlab chiqish, kiyelishini tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi;

GOST 1.5-93. Davlatlararo standartlash ishlarini olib borish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayoni, rasmiylashtirilishi va mazmuniga bo'lgan talablar;

O'zRST 1.9-95. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi. Tarmoqlar standartlarini ishlab chiqish, kiyelishish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

Umumiy o'rta ta'limning DTS quyidagi prinsiplariga tayangan holda ishlab chiqildi:

a) DTSning davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

b) o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan - texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi.

v) umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

g) umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

d) ta'lim mazmunining Respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

e) umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalarga tayanish;

yo) pedagogik tafakkurda qaror topgan ana'naviy qarashlar bilan «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlarida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

- ilg'or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribalaridan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Tayanch o'quv rejasi – umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun DTSning tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv pryedmyeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv pryedmyeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim pryedmyetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

O'quvchilar geografiyaga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart.

- Yer sharining shakli va kattaligi haqida tasavvurga ega bo'lish, o'lchamini bilish;

- Plan ola bilish;

- Globus, xarita, atlas va yozuvsiz xarita bilan mustaqil ishlay olish;

- Yer shari qobiqlari tabiatini bilish, har bir qobiq tabiatini bilish, har bir qobiq tabiatini tushuntira olish;

- Yer yuzining asosiy shakllarini bilish va ularni xaritadan ko'rsata olish;

- Tabiat kompleksi va tabiat zonalarini tavsiflay olish;
- Dunyo aholisi va siyosiy xaritasini bilish;
- Har bir qit'alar va okyeonlar tabiatini bilish;
- Umumgeografik qonuniyatlarini bilish;
- O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi va O'zbekiston hududining tabiatini bilish;
- Iqtisodiy geografik tushuncha, qonuniyat va jarayonlarni bilish;
- Geografik o'rin, tabiiy sharoit va tabiiy resurslar iqtisodiyotga va umuman mamlakat rivojidadagi ahamiyatini Yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topayotgan sharoitda mehnatning taksimlanishi, sotsial muammolar yechimini tushuntira olish;
  - Mamlakat aholisi va mehnat resurslari o'ziga xosligining sabab va oqibatlarini bilish;
  - Iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlararo majmualarini bilish;
  - Iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishi va iqtisodiy rayonlashtirish tamoyillarini bilish;
  - O'zbekistonning har bir iqtisodiy geografik rayonidagi ixtisoslik tarmoqlarining joylashish va rivojlanishiga xos xususiyatlarni tushuntira olish;
  - O'zi yashaydigan qishloq (shahar) geografiyasini bilish;
  - Jahonning umumiy iqtisodiy geografik tavsifini bilish;
  - Jahonshumul tabiiy boyliklarni hamda ekologik muammolarni bilish;
  - Jahon xo'jaligi haqida tasavvurga ega bo'lish;
  - Mamlakatlarning tarraqqiyotiga ko'ra guruhlash myezonlarini bilish;
  - Jahon davlatlarining mintaqaviy tavsifini bilish;
  - Insoniyatning jahonshumul (global) muammolarini idrok eta olishlari kerak.

Yuqoridagi DTS talablari asosida maktablarda geografiya darslarida 9 - sinfda birinchi bo'limda "Jahonning umumiy tavsifi" deb nomlangan bo'lim orqali jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi, fan - texnika inqilobi, jahon xo'jaligi tavsifi berilsa, ikkinchi qismida esa jaonga regional tavsif beriladi.

Turkmaniston Respublikasiga oid mavzuga jami bir soat ajratilgan bo'lib, uchinchi chorakka to'g'ri keladi. Davlatning geografik o'rni, yer yuzasi geologik tuzilishi va foydali qazilmalari haqida o'qitiladi.

Maktabda fan asoslaridan o'quvchilarga puxta va chuqur bilim berish uchun jiddiy ishlarni amalga oshirish lozim. Buning uchun avvalo o'qituvchi o'qitishning samarador metodlarini va usullarini izlab topishga ko'plab harakat qilmog'i lozim. Ayniqsa ilmiy - texnika taraqqiy etgan hozirgi sharoitda o'quvchilarning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim hajmi nihoyatda ortib bormoqda. Masalan iqtisodiy geografiya kurslarini olib qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy geografiya ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi va ularning ishlab chiqarish munosabatlari bilan uzduksiz aloqalarini, turli rayon va mamlakatlarning geografik joylanish va taraqqiyot xususiyatlarini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiya ham turmush talabi, munosabati bilan uzluksiz rivojlanadi. Iqtisodiy geografiya kursining asosiy vazifalaridan biri - mamlakatimiz hududining tabiiy resurslari (yer, suv, iqlim, o'simlik va hayvonot olami, hamda yer osti boyliklari) va ulardan oqilona asosida rayonda ishlab chiqarishning rivojlanishi va joylashuidagi tez sur'atlar bilan bo'layotgan o'zgarishlarni o'quvchilarga zamon talabiga mos holda tushuntirishdan iborat. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar va fan - texnika taraqqiyotining yutuqlaridan keng foydalanishi zarur.

O'quv materiallarini o'quvchilarga tushuntirishda ularning bilimlarini turmush bilan bog'lash hamda iqtisodiy geografiya predmetiga bo'lgan qiziqishni oshirishda o'qituvchiga mavzularga oid xaritalar, rasmlar, diagrammalar, jadvallar bilan bir qatorda turli texnika vositalari katta yordam beradi. Ayniqsa, filmoskop, diaproyektor, kadroyektor, kodoskop, epidoskop, kinoapparatlarning o'rni juda muhim. o'qituvchi bu texnik vositalardan foydalanayotganida maktabning fizika o'qituvchilari bilan bevosita uzviy aloqada bo'lishi lozim.

O'quv jarayonida yuqorida bayon qilingan texnik vositalardan foydalanish uchun avvalo o'qituvchidan maxsus tayyorgarlik ishlarini olib borish talab etiladi:

1. O'qituvchi fanlar bo'yicha o'quv yilining boshidiy oq kalendar va ish reja bilan birga dastur (ayniqsa o'quv qurollaridan foydalanishning texnik vositalari)ni ishlab chiqishi kerak. Bu ishchi dasturda quyidagi masalalarni bajarish talab etiladi:

a) har bir dars turi uchun mavzularning soati va uni puxta tushuntirish, o'quv qurollarini ko'rsatish vaqtlari puxta tuzilishi;

b) diafilm va dipozitivlarni dars mavzusiga moslab tanlash;

v) kadrlarni jonlanirish, diktor matni va varaqalarini mashina yozuvida tayyorlash va magnitafonga yozib qo'yish kerak bo'ladi.

3. Televizion o'quv darslaridan foydalanish uchun geografiya predmeti dars soatlarining vaqti, teleeshittirish dasturining kunlarga moslashtirilgan holda tuzilishi kerak.

4. Texnik vositalardan foydalanishda dastur materiallaridan yangi bilimlar bilan boyitib mustahkamlashga qaratilmog'i lozim.

Darslarda shunday texnika vositalaridan foydalanish natijasida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash jarayonining sifatini yaxshilashga va uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

Iqtisodiy geografiya fanini o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan texni vositalarga epidoskop va filmskopni misol qilish mumkin. Epidoskopga geografik obyekt haqidagi qo'shimcha bilimlar asosida tayyorlangan turli xil rasmlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar yangi mavzuni tushuntirish jarayonida ko'rsatib boriladi. Diafilm - bu yagona mazmunga ega bo'lib, undagi harakatlar kadrda - kadrda rivojlanib boradi. Teleeshittirishdan iqtisodiy geografiya kurslarini o'qitishda ikki xil yo'nalishda foydalanish mumkin:

1. Maxsus iqtisodiy geografiya darslarida.

2. Iqtisodiy geografik obyektlar haqida umumiy bir nechta mavzular yuzasidan bilim beradigan televizion eshittirish bo'lganda takrorlash dars turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Texnika vositalaridan foydalanib dars o'tishda quyidagi jihozlar zarur:

1. Turkmanistonning siyosiy xaritasi;
2. Turkmanistonning tabiiy, siyosiy, iqtisodiy xaritalari;
3. Iqtisodiy jihatdan rivojlanish jadvallari va xo'jalik tarmoqlari salmog'ini ko'rsatuvchi diagrammalar;
4. Asosan Turkmanistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahmulotlarining kolleksiyalari, suratlar va hakoza.

Tashkiliy ishlar bajarilgach, mavzuning rejasi amalga oshiriladi. Mazmuni 12 - 15 minut atrofida epidoskop va diafilmdan foydalanib tushuntiriladi. Keyin kinofilm haqida tushuncha berilib, kino namoyish qilinadi. Kino tugashi bilan doskadagi reja asosida mustahkamlanadi va uy vazifalari beriladi. Uy vazifalari asosan dars jarayonida qilingan ishlar yuzasidan ayrim mustaqil topshiriqlarni bajarishga qaratiladi.

O'qituvchi yangi materiallarni tushuntirishda oldin Turkmaniston tabiiy kartasidan foydalanib, o'quvchilarga Turkmanistonning geografik o'rni, yer yuzasining xususiyati, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, iqlim xususiyatlari va boshqa komponentlar hamda yettinchi sinfda olgan bilimlarini bir karra eslatib o'tadi. So'ngra o'qituvchi yangi mavzu mazmunini yoritadi.

Xulosa qilib aytganda iqtisodiy geografiya kurslarida texnika vositalardan to'g'ri foydalanib dars o'tish, materiallarni chuqur o'zlashtirish bilan birga, o'quvchilar malakasini mukammal oshira borib, mustaqil ishlash qobiliyatini ham o'stiradi.

### 2.3. Turkmaniston Respublikasi mavzusining yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi bir soatlik dars ishlanmasi

#### DARSNING TEXNOLIK XARITASI

Mavzu	Turkmanistonn Respublikasu
Maqsad, vazifalar	<p>O`quvchilarda Turkmaniston Respublikasi haqidagi bilim va tushunchalarini shakllantirish; uning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, ekologik mauammolari, aholisi va mehnat resurslari, xo'jaligi haqidagi bilimlarni yodga tushirish; mavzuga oid yangi atamalar bilan tanishtirish; Turkmaniston Respublikasining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish.</p> <p>O`quvchilarni darslikdan tashqari adabiyot va turli manbalarni o`qishga da'vat etish; o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; jamoa bo`lib ishlash, o`zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda ma'suliyat sezish ko`nikmalarini tarkib toptirish.</p>
O`quv jarayonining mazmuni	<p>O`quvchilarni mustaqil fikrlash va ishlashga o`rgatish, o`z-o`zini boshqarishga yo`naltirish, nutq madaniyatini o`stirish, hozirjavoblik, bashorat qila bilish xususiyatlarini rivojlantirish.</p> <p>O`quvchilarda mavzu asosida bilim va ko`nikmalarni shakillantirish, geografik atlas va xaritalar bilan ishlashga qiziqish o`yg`otish.</p> <p>O`qituvchi tomonidan o`quvchilarning savol-javob, xarita bilan ishlash (amaliy mashg`ulot) orqali yangi mavzuni qay darajada o`zlashtirilganligi nazorat qilinadi.</p>
O`quv jarayonini Amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: "Guruhlar bilan ishlash", "Juftlikda ishlash", "B.B.B". "Kim chaqqon",</p> <p>Shakl: Savol-javob, jamoa va yakka tartibda ishlash, amaliy mashg`ulot.</p> <p>Vosita: Turkmaniston Respublikasi xaritasi, 9 - sinf geografik atlas, yozuvsiz xarita, magnet doska.</p> <p>Texnik vositalar: Videoproektor, ekran, 9 - sinf o`quv atlas, yozuvsiz xarita, 9 - sinf darsligi.</p> <p>Turli didaktik materiallar.</p> <p>Usul: Tartibli ravishda guruhlarda va juftlikda ishlash.</p> <p>Nazorat: Amaliy mashg`ulot. Savol-javob, o`z-o`zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash: 5 ball tizim asosida baholash. Yer shari shaklidagi kartochnalar bilan taqdirlash.</p>
Kutilayotgan natijalar	<p>O`qituvchi: Mavzu belgilangan vaqt ichida barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtiriladi. O`quvchilarning darsda faolligi oshadi. Ularda fanga nisbatan qiziqish o`yg`onadi. Amaliy mashg`ulot davomida barcha o`quvchilar baholanadi. O`z oldiga qo`ygan maqsadlariga erishadi. O`quvchilar og`zaki va amaliy mashg`ulotlarni mustaqil bajaradilar, boshqalarga yetkazish, savol va javob berishga o`rgatiladi.</p> <p>O`quvchi: Mavzu yuzasidan yangi bilimga ega bo`ladilar. Guruhlar</p>

	bilan ishlashni o'rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko'rsata olish ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Turli rasm va videofilmlar namoyishi ularda aniq tasavvur hosil qiladi.
Rejalar	<p>O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologilarni o'zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O'z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqeyalar bilan bog'laydi va solishtiradi.</p> <p>O'quvchi: Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashi o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon eta oladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. Yangi mavzuga oid qo'shimcha materiallar topishga harakat qiladi. Juftlikda ishlashda o'zaro hurmatni o'rganadi. Geografik bashorat qilishga o'rganadi.</p>

### **DARS MAVZU: TURKMANISTON RESPUBLIKASI**

Dars maqsadi:

**a) ta'limiy maqsad:** Turkmaniston Respublikai iqtisodiy geografik o'lkasining joylashgan o'rni, tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari, foydali qazilmalari, aholisi, sanoati, xo'jaligi haqidagi bilimlarni shakllantirish davomida o'quvchilarni yangi bilim va ko'nikmalar bilan tanishtirish. Turkmaniston Respublikasining iqtisodiy geografik o'rni, iqtisodiy geografik o'lkalari, foydali qazilmalari, xo'jaligi, sanoati, sanoat tarmoqlari bilan o'quvchilarni tanishtirish, geografik bilim manbai bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda davom etish, o'quvchilarda xalqaro mehnat taqsimoti, neft' - gaz qazib chiqarish, xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti bilan tanishtirish, geografik bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish; o'quvchilarda tabiiy sharoiti va boyliklariga oid geografik bilimlarni rivojlantirish va qanday tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni aniqlash; o'quvchilarni Turkmanistonning iqtisodiy geografik o'lkalari bilan tanishtirish.

**b) tarbiyaviy maqsad:** Darsda o'rganilgan materiallar orqali Turkmaniston Respublikasining umumiy ma'lumotlari haqida bilimlarni, O'zbekiston Respublikasi bilan taqqoslay olishni o'rgatish, Turkmaniston Respublikasining aholisi va ularning ijtimoiy soʻial muammolarini hal etishga oid tushunchalarni rivojlantirish.

**d) rivojlantiruvchi:** Turli interfaol usullar yordamida o'quvchilarni yangi mavzuni o'zlashtirishga erishish.

Turkmaniston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy, ekologik muammolarini muammolarini hal etishga doir o'z fikrini ayta olish.

#### **Dars rejasi:**

Tashkiliy qism va guruhlariga bo'lish	3 daqiqa
O'tilgan mavzuni so'rash yuzasidan ishlar (Krossvord, geografik diktant, testlar bajarish)	5 daqiqa
Yangi mavzu yuzasidan bilimlar berish (Yangi dars taqdimoti, filmlar, rasmlar)	15 daqiqa
Juftlikda ishlash	2 daqiqa
Amaliy ish bajarish	5 daqiqa
Atlas va yozuvsiz xarita bilan ishlash. Magnit doskada ishlash	5 daqiqa
“B.B.B” o'yini	5 daqiqa
Mavzuni mustahkamlash	3 daqiqa
Uyga vazifa berish	2 daqiqa

#### **Darsning tashkil etilishi:**

- a) Salomlashish, davomatni aniqlash;
- b) O'quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish;
- d) O'quvchilarni guruhlariga bo'lish
  - 1 - Guruh. **Markaziy Turkmanistonn**
  - 2 - Guruh. **G`arbiy Turkmanistonn**
  - 3 - Guruh. **Janubiy Turkmanistonn**
  - 4 - Guruh. **Shimoliy Turkmanistonn**
  - 5 – Guruh. **Sharqiy Turkmanistonn**

O'tilgan mavzu yuzasidan krossvordlar, geografik diktant, testlar navbati bilan bajariladi.

Yangi mavzu bayoni:

Turkmaniston Respublikasining geografik o'rni, chegaralari haqida o'quv o'razmalaridan foydalangan holda savol - javob va suhbat, o'lkaning tabiiy xaritasi bo'yicha o'quvchi mustaqil ish, xarita va darslikdan foydalangan holda o'lkadagi foydali qazilma, jinslarni jadval tarzda aks ettirish; amaliy mashg'ulotlar foydali qazilmalarni yozuvsiz xaritaga tushirish, Turkmaniston Respublikasi xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi bo'yicha savol - javob uyushtirish.

Atama va tushunchalar: geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari, aholisi, jinsiy, milliy va yosh tarkibi, xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti, ichki tafovutlar, foydali qazilmalari.

Geografik ob'ektlar: cho'kmalar, yirik cho'llar, tog' oralig'i botiqlari, Turkman - Xuroson tog' sistemasi, Kaspiy dengizi. Tog' oralig'i botiqlari, tog' oldi, daryo vodiylari, vohalar, Kaspiy bo'yi pasttekisligi, Sariqamish ko'li, Oqjaksoy iqtisodiy geografik rayonlari, viloyatlari, tumanlari, shaharlari.

O'quvchilarga Ziyonet tarmog'ining video portalidan olingan Turkmaniston Respublikasi haqidagi film filmi namoyish etiladi

<http://geo.1september.ru>, [www.geografyia.ru](http://www.geografyia.ru), [wgeo.ru](http://wgeo.ru)

*Mavzuni mustahkamlash yuzasidan*

“B.B.B” O’YINI TASHKIL ETILADI.

O’yinda o’quvchilar mavzu yuzasidan quyidagicha jadval asosida ishlaydi

<b>BILARDIM</b>	<b>BILIB OLDIM</b>	<b>BILMOQCHIMAN</b>
Turkmanistonning geografik o'rni va chegaralarini	Turkmaniston Respublikasining tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xo'jalikdagi ahamiyati	Transportining o'ziga xos xususiyatlari

Darsga oid qo'shimcha ma'lumotlar:

1. Turkmaniston Respublikasi tabiiy siyosiy geografik chegaralari.

- shimolda Qozog'iston Respublikasi
- shimoli - sharqda O'zbekiston Respublikasi
- janubda Afg'oniston va Eron Respublikasi
- g'arbiy qismda Kaspiy dengizi bilan chegaradosh.

2. Tabiiy sharoiti va boyliklari.

- Turkmanistonning tabiiy sharoiti va er usti qazilmalari juda xilma - xildir.
- relefiga past tekisliklar, cho'kmalar, yirik cho'l va tog' oralig'i botiqlari,

balandiligi 3 ming metrga etadigan tog'lar uchraydi.

- hududning 80 foizini qora qum cho'li egallagan.

- tog' oralig'i botiqlari, tog' oldi daryo vodiylari, vohalar esa 12 foizini tashkil etadi.

- g'arbiy Turkmaniston neft - gaz mintaqasi, G'arbiy Turkmaniston past tekisligida joylashgan.

- Markaziy Qorqum gaz mintaqasi - Darvoza, Koyin, Medar kabi gaz konlari joylashgan.

Respublika yoilg'i energetika resurslariga boy. Respublika gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasida ikkinchi o'rinda turadi (Rossiyadan keyin).

Respublika oltita neft - gaz mintaqasiga ajraladi.

- 1) G'arbiy Turkmaniston
- 2) Markaziy Qoraqum
- 3) Bungde - Xeva
- 4) CHorjo'y
- 5) Orqa ungo'z
- 6) Murg'ob, Badxiz - Qorabel.

YUqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan o'qituvchi bir biriga bog'liq bo'lmagan mavzu rejasiga asosan 15 tadan qisqa va aniq savollar tuzib chiqadi. Sinf o'quvchilari 4 guruhga ajratiladi va har bir guruhga savollar yozilgan

kartochkalar tarqatiladi. Mavzular va guruhlar birin ketin muayyan tartibda joylashuvi zaruriy shartdir.

Masalan: 1 - guruh. Turkmaniston Respublikasining iqtisodiy geografik joylashuvi chegaralarini o'rgansa,

2 - guruh, tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklarini;

3 - guruh, aholisi, jinsiy, milliy va yosh tarkibini;

4 - guruh, xo'jaligi: sanoati, qishloq xo'jaligi va transportini;

5 - guruh, foydali qazilmalarini o'rganish topshiriladi.

Maxsus tayyorgarlik ko'rilganidan so'ng, o'qituvchi guruhlardan xohlagan bir o'quvchini doskaga chiqarib, savollarga javob talab qiladi, qolgan a'zolar esa kontur kartalari bilan ishlaydi va topshiriqlarni bajarib boradi. Savollarning javobi tinglanib o'quvchilar baholanadi.

## Xulosa

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlari jadal sur'atlar bilan ilgarilab bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktab geografiya kursi bo'lgan "O'rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" hamda "Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" kursida o'quvchilarga geografik ta'lim - tarbiya berishda va shu bilan birgalikda iqtisodiy ta'lim tarbiyani ham shakllantirib boradi.

Bizga ma'lumki, maktab ta'limining eng asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga fan asoslarini o'rgatish va ularda tegishli malakalar hosil qilish, shu hosil qilingan bilim, malaka, ko'nikmalardan o'z faoliyatlari davomida o'rinli foydalana olishga o'rgatishdan iboratdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida umumta'lim maktablari geografiya kursida Turkmaniston Respublikasini o'qitish uslublariga bag'ishlangan bo'lib, uni bajarish tartibiga quyidagi natija va xulosalarga ega bo'lindi:

- Turkmaniston Respublikasini umumta'lim maktablarida o'qitish muhim hisoblanadi;

Turkmaniston Respublikasini o'rganishda ta'limning no'anaviy usullaridan foydalanish o'quvchilarning shu mavzu bo'yicha DTS talablari darajaida bilish, malaka va ko'nikmalarni egallashlari kafolatlangan;

- o'quvchilarga Turkmaniston Respublikasini o'rgatishda ko'rgazmali qurollar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ularning shu mavzularni chuqur o'zlashtirish uchun ko'proq ma'lumotlarni egallashlariga zamin yaratadi;

- agar har bir geografiya o'qituvchisi Turkmaniston Respublikasini o'qitishda ishda olingan natija va xulosa va natijalardan foydalangan holda olib borsa, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasida o'sish kuzatilsa ajab emas.

Bitiruv malakaviy ishi ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda Turkmaniston Respublikasiga umumiy geografik ta'rif berilgan. Bu bobda Turkmaniston Respublikasining iqtisodiy geografik joylashuvi va tabiiy resurslari, aholisi,

mehnat resurslari, xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari va foydali qazilmalari yoritib berilgan. Ushbu ma'lumotlar bobni tashkil etgan uchta paragrafda bayon etilgan. Bobni yoritishda P. Baratov, A. Rafiqov, M. Mamatqulov "O'rta Osiyoning tabiiy geografiyasi", A. Ro'ziev "O'rta Osiyo iqtisodiy - ijtimoiy geografiyasi" kabi adabiyotlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi esa "Turkmaniston Respublikasi umumta'lim maktablarida o'qitilishi" deb nomlanib, unga doir mavzularni yoritib berishda "Yangi pedagogik texnologiya asoslari", "Interfaol darslar", "Innovation jarayonlar", "Ta'lim jarayonida noan'anaviy usullardan foydalanish" kabi adabiyotlardan foydalanilgan. Ushbu ishda YAPT lardan qo'llaniladigan usul va uslublar, Turkmaniston Respublikasi mavzusini o'qitishga doir bir soatlik dars ishlanmasi hamda umumta'lim maktablarida o'quvchilarga ko'rgazmali qurollardan foydalanish yo'llari haqida bayon qilingan. Turkmaniston Respublikasini umumta'lim maktablarida o'qitilishiga doir bir soatlik dars ishlanmasidan ham samarali foydalanib, metodik qo'llanma sifatida qaralsa bo'ladi.

So'nggi xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu tadqiqot ishida maktab geografiya o'qituvchilari metodik qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Umuman olganda, ushbu malakaviy ishi o'quvchilarning darsga faollik darajasini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1 Karimov I.A. Abulg'oziy B. Shajarai turk. – T.: “CHo'lpon”, 1992, 192 – b.
- 2 Ahmedov B. A. O'zbek ulusi // O'zbekim. – T.: 1992. 128 – 131 – b.
- 3 Ahmedov B. A. Tarixdan saboqlar. – T.: “O'qituvchi”, 1994. 427 – b.
- 4 Bafoev B. Qo'hna so'zlar tarixi. – T.: “Fan”, 1991.
- 5 Begimov O. Toshkent viloyatining qadimiy eroniy toponimlari xususida //Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. – T.: 1994.69–70– b.
- 6 Berdax Yusuf. Turkcha – o'zbekcha va o'zbekcha-turkcha lug'at. – T.: “O'zbekiston”, 1993. 415 – b.
- 7 Bo'riev O. XI – XVI asrlar yozma manbalarida Toshkent shahri va viloyati toponimiyasi // Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. – T.:1994, 48-50 – b.
- 8 Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – T.:”O'qituvchi”, 1994, 320 – b.
- 9 Mamedov M. Xalq nomlari joy nomlarida. – T.: “Fan”, 1991. 48 – b.
- 10 Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. – T.: 2008. 80 b.
- 11 Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – T.: “CHo'lpon”, 1994, 352 – b.
- 12 Mirortiq Mirabdulla o'g'li. Jo'g'rofiy atamalar lug'ati.–T.: “Fan”,1992.56–b.
- 13 Narziqulov A. Dehqon taqvimi. – T.: “Mehnat”, 1991. 62 – b.
- 14 Rasulov A. R., Hikmatov F. H., Akbarov A. A. Hidrologiya atamalari va tushunchalari ruscha – o'zbekcha lug'ati. – T.: “Universitet”, 1993. 96 – b.
- 15 Tojikiston Respublikasi geografik nomlarining o'zbekcha yozilishi yo'riqnomasi (Tuzuvchi: O. Bo'riev). – T.: O'zgeodezkadastr, 2001. 45 – b.
- 16 Xolmo'minov X. Boysun mikrotoponimiyasidagi arabcha elementlar//O'zbek tiliga oid tadqiqotlar IV. – T.: 1992. 88-89-b.
- 17 Ernazarov T.J. Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy qiyosiy tadqiqi. –

- Filolog. Fan nomzodi...diss.avtoreferati. – T.: 1993. 24 – b.
- 18 Ernazarov T. J. Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy – qiyosiy tadqiqi //KD.- T.: 1993.
  - 19 O‘zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so‘zlar lug‘ati. – T.: O‘zgeodezkadastr, 2001. – 150 – b.(tuzuvchi S. Qoraev).
  - 20 Qirg‘iziston Respublikasi geografik nomlarining o‘zbekcha yozilishi yo‘riqnomasi (tuzuvchi S. Qoraev). – T.: O‘zgeodezkadastr, 2001. 51-b.
  - 21 Qoraev S. Toshkent toponimlari. – T.: “Fan”, 1991. 64 – b.
  - 22 Qoraev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2005, 240 – b.
  - 23 Qoraev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 320 – b.
  - 24 Qurbonniyozov R. Geografiyadan atama va tushunchalarining qisqacha izohli lug‘ati. – Urganch, 1994. 50 – b.
  - 25 G‘ulomov P. N. Geografiyadan qisqacha ruscha – o‘zbekcha atamalar va tushunchalar lug‘ati. – T.: Universitet, 1993.
  - 26 G‘ulomov P. N. Jo‘g‘rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug‘ati. - T.: O‘qituvchi, 1994. 144- b
  - 27 <http://geo.1september.ru>,  
[www.geografyia.ru](http://www.geografyia.ru),  
[wgeo.ru](http://wgeo.ru)